Tamaki mahsulotlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun har oylik yig‘imni joriy etish - hududlar soliq salohiyatini oshirishning institutsional mexanizmi

Ismoilov Muslimjon Qambarali o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Soliq va soliqqa tortish” kafedrasi katta o‘qituvchisi
ORCID: 0009-0003-2598-6240
E-pochta: muslimjonsoliq1804@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur tezisda tamaki mahsulotlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun har oylik yig‘im joriy etilishining hududlar soliq salohiyatiga ta'siri xalqaro tajriba asosida baholangan. Tamaki mahsulotlari savdosini fiskal tartibga solishda OECD mamlakatlari hamda xalqaro sog‘liqni saqlash tashkilotlari tavsiya etayotgan yondashuvlar tahlil qilinib, mazkur yig‘imning mahalliy budjetlar daromad bazasini kengaytirish, soliq ma'murchiligini takomillashtirish va foydalanilmayotgan fiskal salohiyatni safarbar etishdagi o‘rni asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: hududlar soliq salohiyati, tamaki mahsulotlari, chakana savdo, fiskal desentralizatsiya, mahalliy budjetlar, soliq ma'murchiligi, yig‘im.

The Introduction of a Monthly Levy on the Retail Sale of Tobacco Products as an Institutional Mechanism for Enhancing Regional Tax Capacity

Ismoilov Muslimjon Qambarali o‘g‘li,
Tashkent State University of Economics,
Senior lecturer of the department "Taxes and Taxation"
ORCID: 0009-0003-2598-6240
e-mail: muslimjonsoliq1804@gmail.com

Abstract

This paper examines the impact of introducing a monthly levy on the right to engage in the retail sale of tobacco products on regional tax capacity, drawing on international experience. It analyzes the approaches recommended by the OECD and international public health organizations for the fiscal regulation of tobacco product retailing and substantiates the role of the monthly levy in broadening the revenue base of local budgets, improving tax administration, and mobilizing untapped fiscal capacity. The study demonstrates that this mechanism contributes not only to strengthening fiscal discipline but also to enhancing regional tax capacity and supporting the implementation of fiscal decentralization policies.

Keywords: Regional tax capacity; tobacco products; retail trade; fiscal decentralization; local budgets; tax administration; monthly levy.

Kirish

Soliq nazariyasiga ko‘ra, davlat ayrim turdagi mahsulotlarga nisbatan qo‘shimcha fiskal instrumentlarni qo‘llash orqali bir vaqtning o‘zida ikkita strategik maqsadni amalga oshiradi: birinchisi – budjet daromadlarini ko‘paytirish, ikkinchisi esa salbiy tashqi ta'sir (negative externality) keltirib chiqaruvchi mahsulotlar iste'molini iqtisodiy jihatdan tartibga solishdir. Tamaki mahsulotlari aynan

shunday tovarlar guruhiga kiradi. Shu sababli ko‘plab mamlakatlarda tamaki bozori aksiz soliqlari, litsenziya yig‘imlari va chakana savdo uchun maxsus to‘lovlar orqali tartibga solinadi.

O‘zbekistonda uzoq yillar davomida tamaki mahsulotlari realizatsiyasidan davlat daromadlari asosan aksiz solig‘i, qo‘shilgan qiymat solig‘i hamda foyda solig‘i orqali shakllanib kelgan. Biroq chakana savdo faoliyatining o‘zi uchun alohida fiskal mexanizm mavjud emas edi. Natijada tamaki mahsulotlarini sotuvchi subyektlar faoliyati ustidan yagona hisob yuritish, ularning hududlar kesimidagi joylashuvi va faoliyatini doimiy monitoring qilish imkoniyatlari cheklangan edi.

Hududlar soliq salohiyatini oshirishning muhim shartlaridan biri mavjud iqtisodiy faoliyatni to‘liq fiskal tizimga jalb etish hisoblanadi. Tamaki mahsulotlari chakana savdosi yuqori rentabelli faoliyat turlaridan biri bo‘lishiga qaramay, uzoq vaqt davomida ushbu faoliyatni mahalliy budjetlar manfaatlari bilan bevosita bog‘laydigan alohida yig‘im mexanizmi mavjud emas edi.

Natijalar va muhokama

Xalqaro amaliyotda tamaki mahsulotlari bozori eng yuqori darajada tartibga solinadigan sohalardan biri hisoblanadi. World Health Organization tamaki mahsulotlari aylanmasini nazorat qilishda aksiz soliqlari bilan bir qatorda litsenziyalash, ro‘yxatdan o‘tkazish va savdo faoliyati uchun yig‘imlar kabi vositalardan foydalanishni tavsiya etadi. Bunday mexanizmlar noqonuniy savdoni qisqartirish, soliq intizomini mustahkamlash va davlat daromadlarini oshirishga xizmat qiladi[1].

Shuningdek, Organisation for Economic Co-operation and Development mamlakatlari tajribasi shuni ko‘rsatadiki, yuqori xavf guruhiga kiruvchi tovarlar bozorida doimiy fiskal to‘lovlarning mavjudligi davlat organlariga savdo subyektlarini to‘liq hisobga olish, real savdo hajmini baholash va hududlar daromad bazasini kengaytirish imkonini beradi. Mazkur yondashuv fiskal desentralizatsiya tamoyillariga ham mos keladi, chunki mahalliy darajada daromad manbalari kengaygani sari hududlarning iqtisodiy rivojlanishdan manfaatdorligi ortadi[2].

Mamlakatimizda tamaki mahsulotlari bilan chakana savdo qilish faoliyatini fiskal tartibga solish tizimida qator institutsional va iqtisodiy muammolar mavjud bo’lib, ushbu muammolar nafaqat mahalliy budjetlar daromadlarining to‘liq shakllanmasligiga, balki hududlarning soliq salohiyatini real baholash imkoniyatlarining cheklanishiga ham sabab bo‘lgan.

Birinchidan, tamaki mahsulotlari savdosining hududlar soliq salohiyatiga qo‘shayotgan hissasi to‘liq baholanmaganligi bilan bog‘liqligini ko’ramiz. Tamaki mahsulotlari chakana savdosi yuqori rentabelli va doimiy talabga ega bo‘lgan iqtisodiy faoliyat turi hisoblanishiga qaramasdan, ushbu faoliyat uchun alohida mahalliy yig‘im mexanizmi mavjud emas. Natijada tamaki mahsulotlari savdosi orqali yaratilayotgan iqtisodiy qiymat mahalliy budjet daromadlariga to‘liq transformatsiya qilinmaydi, hududlarda mavjud bo‘lgan fiskal zaxiralarning bir qismi safarbar etilmay qoladi. Bu esa hududlarning soliq salohiyatini baholashda iqtisodiy faoliyatning haqiqiy ko‘lamini aks ettirish imkoniyatini cheklaydi.

Ikkinchidan, mahalliy budjetlarning ushbu faoliyatni rivojlantirish va nazorat qilishdan iqtisodiy manfaatdorligi yetarli darajada shakllanmaganligi bilan izohlanadi. Tamaki mahsulotlari realizatsiyasi hajmi yildan-yilga ortib borayotgan bo‘lsada, ushbu faoliyatdan mahalliy budjetlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri va muntazam daromad keltiruvchi fiskal mexanizm sifatida qaralmagan. Shu sababli hududiy davlat organlarida tamaki mahsulotlari savdosi bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyektlarini to‘liq ro‘yxatga olish, ularning qonuniy faoliyat yuritishini rag‘batlantirish hamda yangi savdo nuqtalarini hisobga olish bo‘yicha iqtisodiy manfaat yetarli darajada shakllanmagan.

Uchinchidan, soliq ma'murchiligida axborot nomutanosibligining mavjudligidir. Tamaki mahsulotlarini realizatsiya qiluvchi barcha savdo nuqtalarining yagona elektron reyestri va monitoring tizimi to‘liq shakllanmaganligi sababli ayrim savdo shoxobchalari nazoratdan chetda qolgan. Natijada noqonuniy realizatsiya holatlarini o‘z vaqtida aniqlash, savdo hajmini to‘liq monitoring qilish hamda soliq bazasini aniq shakllantirish imkoniyatlari cheklangan. Bu esa hududlarning soliq salohiyatini baholashda foydalaniladigan statistik va fiskal ma'lumotlarning aniqligiga salbiy ta'sir ko‘rsatadi.

To‘rtinchidan, tamaki mahsulotlarining noqonuniy aylanmasi bilan bog‘liq bo‘lib, u budjet daromadlarining kamayishiga olib keluvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Noqonuniy tamaki savdosi natijasida aksiz solig‘i, qo‘shilgan qiymat solig‘i va foyda solig‘i bo‘yicha tushumlar kamaygan, shuningdek, mahalliy budjetlar uchun qo‘shimcha daromad manbalari shakllanmagan. Buning oqibatida hududlarning mavjud fiskal imkoniyatlari to‘liq safarbar etilmagan hamda soliq salohiyatining yashirin qismi iqtisodiy aylanmadan tashqarida qoladi.

Beshinchidan, hududlar soliq salohiyatini baholash metodologiyasining cheklanganligi bilan bog‘liq. Amaldagi baholash tizimida hududlarning fiskal imkoniyatlari asosan undirilgan soliqlar hajmi, yalpi hududiy mahsulot, iqtisodiy faollik ko‘rsatkichlari va faoliyat yuritayotgan xo‘jalik subyektlari soni kabi indikatorlar asosida baholanadi. Biroq tamaki mahsulotlari chakana savdosi bozorining real iqtisodiy hajmi va ushbu faoliyatning fiskal salohiyatini aks ettiruvchi alohida indikator mavjud emas. Natijada hududlarning soliq salohiyatini baholashda ayrim iqtisodiy resurslar yetarli darajada inobatga olinmaydi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida tamaki mahsulotlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun bazaviy hisoblash miqdorining 10 foizi miqdorida har oylik yig‘im joriy etish taklifini ishlab chiqdik.

Mazkur mexanizm avval mavjud bo‘lgan muammolarni quyidagi yo‘nalishlarda bartaraf etadi:

- tamaki mahsulotlari chakana savdosidan mahalliy budjetlarga muntazam daromad oqimini shakllantiradi;
- chakana savdo subyektlarini to‘liq ro‘yxatga olish imkonini kengaytiradi;
- noqonuniy savdo nuqtalarini aniqlashni yengillashtiradi;
- raqamli soliq ma'murchiligi samaradorligini oshiradi;
- hududlar soliq salohiyatini baholash uchun yangi fiskal indikatorni shakllantiradi.

Xulosa

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tamaki mahsulotlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun har oylik yig‘im joriy etilishi oddiy fiskal to‘lov emas, balki hududlar soliq salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi institutsional mexanizm hisoblanadi. Xalqaro tajribada qo‘llanilayotgan tamaki bozorini litsenziyalash, ro‘yxatdan o‘tkazish va doimiy fiskal nazorat qilish amaliyoti bilan uyg‘un ravishda ushbu yig‘im mahalliy budjetlar daromad bazasini kengaytirish, soliq ma'murchiligini takomillashtirish va noqonuniy iqtisodiy faoliyatni qisqartirish orqali hududlarning fiskal salohiyatidan yanada samarali foydalanish imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

[1] https://cdn.who.int/media/docs/librariesprovider2/euro-health-topics/tobacco/tobacco-control-fact-sheet-uzbekistan.pdf?download=true&sfvrsn=d0cc108a_2&utm_source

[2] https://cdn.who.int/media/docs/librariesprovider2/euro-health-topics/tobacco/tobacco-control-fact-sheet-uzbekistan.pdf?download=true&sfvrsn=d0cc108a_2&utm_source

[3] O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. 30.12.2019 https://lex.uz/docs/-4674902

[4] https://assets.tobaccocontrollaws.org/uploads/legislation/Uzbekistan/Uzbekistan-Law-No.-ZRU-844.pdf?utm_source